



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Eldor Xudoyberdiyev

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

KASBIY RIVOJLANISH INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TUZISH VA UNI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta'lism trayektoriyasini tuzish usullari, tuzishda yuzga keladigan muammolar, trayektoriya loyihasini tuzishda SMART maqsadlar qo'yish, uni amalga oshirishning metodik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Pedagog, kasbiy rivojlanish, individual ta'lism trayektoriyasi, SMART, motivatsiya, ustoz-shogird, hayot davomida o'qish.

Pedagog xodimlarning faoliyati tahlil qilinganda, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlaridagi kamchiliklarni ko'ra olmasliklari, mutaxassisligimni yaxshi bilaman degan tasavvur qotib qolganligi sababli kasbiy rivojlnana olmayotganligi ma'lum bo'ldi. Aksariyat holatlarda mutaxassisligim bo'yicha bilimlarim yetarli deb o'ylaydigan o'qituvchilarining o'sha bilimlari o'z ustida ishlamaganligi natijasida ancha eskirib qolgan bo'ladi. Vaholangki, o'qituvchi nafaqat dars o'tadigan fanini chuqur bilishi, balki zamon bilan hamnafas, fan-texnika taraqqiyotidan xabardor, tanqidiy, ijodiy fikrlaydigan, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan psixolog, notiq, o'zgarishlarga moslashuvchan kuchli amaliyotchi bo'lishi lozim. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'qituvchi eng kerakli va zarur mahsulot ishlab chiqaruvchidir. Agar kreativ tadbirkor bozorning oldi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarsa, o'qituvchi o'sha kreativ tadbirkorni shakllantiradi. Demak,

o‘qituvchi bilimli va mahoratli bo‘lmash ekan, o‘z-o‘zidan aqli tadbirkor ham bo‘lmaydi, bu esa sifatlari oziq-ovqat mahsulotlarisiz qolishimizga sabab bo‘ladi. Birgina shu misolning o‘zi orqali anglashimiz mumkinki, ta’lim sifatsiz bo‘lsa insonlarning turmush tarzida, hayotning mohiyatini anglashida muammolar kelib chiqadi. Shu sababli jamiyat va davlat sifatlari ta’limsiz taraqqiy etmaydi. Chunki o‘qituvchi jamiyat uchun yetuk, aqli insonlarni, davlat uchun salohiyatli, kreativ kadrlarni yetishtirib beradi. Shu nuqtai nazaridan baho beradigan bo‘lsak, o‘qituvchining salohiyatidan ta’limning darajasi hech qachon yuqori bo‘lmaydi. Ta’limni rivojlantirish uchun o‘qituvchini o‘sirish zarur. Ushbu jabhada yig‘ilib qolgan muammolarni bartaraf etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarorida xalq ta’limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi belgilab berildi [3].

Endilikda pedagog xodimlar o‘zlarining kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasi asosida malaka oshiradi. Ammo shu o‘rinda ba’zi muammolar ham kelib chiqishi tabiiy. Chunki kasbiy rivojlanish uchun har bir o‘qituvchi o‘zidagi kamchilik va yetishmayotgan kompetentliklarni ongli ravishta aniqlab, ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etish rejasini tuzib olishi zarur. Pedagog xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnama natijalariga ko‘ra ko‘pchilik individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi loyihasi qanday tuzilishini bilmayman yoki bu haqda tasvvurga ega emasman deb javob berdi. Shu holatdan kelib chiqib mulohaza qiladigan bo‘lsak, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi o‘zi nima ekanilgini, trayektoriya loyihasini qanday tuzish kerakligi, SMART maqsadlar haqida tasavvur uyg‘otish oldimizda turgan eng birlamchi vazifadir.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’lim muassasalari pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasini tuzish va uni amalga oshirish bo‘yicha tajriba-sinovi shlarini tashkil etishi, bu sohada ilmiytadqiqotlar olib borish eng samarali maqsadga eltuvchi yo‘ldir.

Jarayonda o‘tkazgan ba’zi tajibalarimiz va o‘rganlarimizdan kelib chiqib, ayrim tavsiyalar berishni maqsad qildik. Kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasi – o‘qituvchining bo‘shliqlarini bartaf etish va kasbiy rivojlanishi uchun SMART me’zonlardan foydalaniib aniq muddatda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini yoki “Yo‘l xaritasi” deyish mumkin. Pedagogning individual ta’lim trayektoriyasini tuzish undan kasbiy ehtiyojlari miqdorini anglash, baholay olish, loyihalash va rivojlanish nuqtalarini oldindan ko‘ra olish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab qiladi. [5, 114-b.] Shuningdek, SMART maqsadlar qo‘ya olishni ham bilish zarur. Ko‘pchilik insonlar o‘z hayotini bir faoliyatdan boshqasiga o‘tish bilan sarflaydilar yoki ko‘proq narsalarni amalga oshirish ilinjida shoshib-pishib, aslida arzimas ishni bajarishga ulgurishadi. SMART maqsadlar o‘rnatish fikrlaringizni tartibga keltirish, urinishlaringizga diqqat qaratish,

vaqtningiz va sizda mavjud narsalardan unumli foydalanish hamda hayotda siz ko‘zlagan narsalarga erishish imkoniyatlaringizni oshirish demakdir. SMART – inglizcha so‘zlarning qisqartmasi bo‘lib, Specific – aniq (sodda, tushunarli, ahamiyatli), Measurable – o‘lchab bo‘ladigan (mazmunli, rag‘batlantiruvchi), Achievable – erishib bo‘ladigan (kelishilgan, yetishsa bo‘ladigan). Relevant – mos, tegishli (oqilona, real va manbali, natijalarga asoslangan), Time bound – chegaralangan (vaqtga bog‘liq, ma’lum vaqt bilan cheklangan, vaqt bahosi chegaralangan, o‘z vaqtida) ma’nolarini anglatadi. Pedagog SMART maqsadlar asosda kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasi tuzsa, ko‘zlagan natijaga erishishi osonlashadi. Masalan, oliv toifali o‘qituvchi bo‘lish maqsad qilindi. Bu aniq, o‘lchassa, erishsa bo‘ladi, faoliyatga mos, ana endi aniq vaqtini belgilash zarur (bir yil yoki ikki yil). Ushbu maqsaddan kelib chiqib o‘zidagi bo‘shliqlar aniqlanadi. Mutaxassislik faniga doir yangi bilimlarni egallash, ilmiy-metodik jihatdan rivojlanish, AKT savodxonligiga erish kabi ehtiyojlar aniqlansa, ushbu ehtiyojlarni bosqichma-bosqich aniq vaqtarda qondirish trayektoriyasi tuziladi va amalga oshiriladi.

Individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashda pedagog va maslahatchi hamkorlikda ishslashlari hamda quyidagilarni inobatga olishlari lozim bo‘ladi:

- pedagogning umumiylashtirishda kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlar;
- kasbiy va ijtimoiy faoliyati holati;
- psixologik xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, emotsionalligi va b.), kommunikativ xususiyatlari;
- kasbiy, ijtimoiy, bilish motivlarining shakllanganligi va turg‘unligi;
- optimal qarorlar qabul qila olishi, o‘zi uchun eng qulay hamda samarali shakl va usullarni tanlay olishi
- refleksiyasi, faoliyati mazmuni, ehtiyojlarini anglashi va b. [5, 115-116 b.]

Pedagog uchun kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasini tuzish va uni amalga oshirish uchun motivatsiya muhim omil hisoblanadi. Motivatsiyaning ikki xil, ya’ni ichki va tashqi bo‘lishi barchmizga sir emas. Qachonki, mana shu ikki motivatsiya uyg‘unlashsa, yangi g‘oyalar, nostandard fikrlar, o‘z ustida ishslash ishtiyоqi paydo bo‘ladi. Masalan, pedagog o‘qituvchilik kasbini tanlagan, ammo unga ushbu kasbga nisbatab mehr, bolalar bilan ishslashga toqat yo‘q. Davlat pedagogik faoliyatning jozibadorligini oshirish uchun islohatlarni amalga oshiryapti, qulay sharoitlar yaratib berayapti, moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘bat olishning mexanizmlarini joriy qilayapti. Bunday holatda tashqi motivatsiya bor, ichki motivatsiya yo‘q. Shu sababli o‘qituvchi kasbiy rivojlanishni xohlamayapti. Bu o‘rinda kelajak kadrlarini tayyorlashda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqib, uni kasbga yo‘naltirish muhim.

Pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasini tuzishda amalga oshiriladigan ishlar yo‘nalishi, bajariladigan tadbirlar va harakatlar, o‘tkazish muddati,

pedagogning ishtirok etish shakli, natijalarni taqdim qilish shakli, natijalar tahlili va ularni taqdim qilish joyi belgilab olinadi va bajarilishi haqida belgi qo'yib boriladi.

Pedagogning kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasini tuzish quyidagi bosqichlarni nazarda tutadi:

- kasbiy qiyinchiliklar va ehtiyojlar tashxisi (boshlang'ich holat);
- malaka oshirish maqsadi va kutiladigan natijalarni belgilash;
- malaka oshirish mazmunini shakllantirish;
- malaka oshirish ta'limi ishtirokchilar bilan o'zaro ta'sir mexanizmi va harakat yo'nalishlarini belgilash;
- belgilangan yo'nalishni amalga oshirish;
- natijalar tahlili va refleksiv baholash.

1. Titul varag'i.

Ta'lim muassasasining nomi.

Pedagogning familiyasi, ismi, sharifi.

Tasdiqlangan yil, shahar.

2. Individual ta'lim trayektoriyasini tuzish maqsadi.

Strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar.

Yaqin muddatga mo'ljallangan rejalar.

Kutiladigan natijalar.

3. Tushuntirish xati.

Axborot-ma'lumotnoma:

- umumiyl ma'lumot;
- joriy holat bo'yicha tahliliy ma'lumot;
- zaruriy resurslar;
- amalga oshirish muddati;
- amalga oshirilgan ishlar hisoboti shakli.

4. Individual ta'lim trayektoriyasi jadvali.

No	Amalga oshiriladigan ishlar yo'nalishi	Bajariladigan tadbirlar va harakatlar	O'tkazish muddati	Pedagogning ishtirok etish shakli	Natijalarni taqdim qilish shakli	Natijalar tahlili va ularni taqdim qilish joyi	Bajarilishi haqida belgi

Individual ta'lim trayektoriyasi jadvalini tuzish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Amalga oshiriladigan ishlar yo'nalishlari o'tkazilgan diagnostika va refleksiv tahlillar natijasiga ko'ra aniqlangan kasbiy qiyinchiliklar va ehtiyojlar asosida belgilanadi:

- umumpedagogik (zamonaviy ta'lim texnologiyalari, maqbul metodik usullar, pedagogik vositalar pedagogik tashxis texnologiyalari, psixologik-pedagogik korreksiya, monitoring va refleksiyani baholash texnologiyalari, axborot manbalari bilan ishlashga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish);

- ilmiy-nazariy (o'qitadigan fanini nazariy asoslari, o'qitish metodlari, fan taraqqiyoti tarixi va erishilayotgan muvaffaqiyatlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tajriba-sinov maydonchalari, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish);
- metodik (o'quv fani doirasida o'qitishni tashkil qilish shakllari va vositalarini, o'quvchilarni o'qitish metodlari va usullarini bilishi hamda ulardan samarali foydalanish darajasini oshirish);
- psixologik-pedagogik (o'qitish, tarbiyalash va o'quvchilarni barkamol voyaga yetkazishning psixologik qonuniyatları, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, shuningdek, pedagogika va psixologiyaning nazariy asoslariga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish);
- kommunikativ (insonlar bilan o'zaro ta'sir strategiyasi, taktikasi va texnikasini ishlab chiqish, aniq maqsadga erishishda ular bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish, o'z nuqtai nazarini asoslash va ishontirish, muammoli vaziyatlarda tashabbus ko'rsatish hamda adekvat va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, kasbiy diskussiyalar va muhokamalarda ishtirok etish ko'nikmalarini takomillashtirish);
- shaxsiy qiziqishlari (shaxsiy-kasbiy kompetentliligini rivojlantirish, ya'ni pedagogik imijini takomillashtirish, idealini yaratish, nutq madaniyati, liderlik sifatlarini oshirish).

Pedagogning individual ta'limgan trayektoriyasini loyihalashda faoliyatining quyidagi yo'nalishlariga (tadbirlar va harakatlar) asosiy e'tiborni qaratamiz:

- malaka oshirish kurslaridan o'tishi;
- mustaqil ta'limgan olishi;
- turli tadbirlar va metodik ishlardagi ishtiroki;
- ta'limgan muassasasi va pedagogik uyushmalardagi faoliyati.

O'tkazish muddati. Har bir amalga oshiriladigan ishlar va tadbirlarning aniq muddatlari ko'rsatiladi. Barcha tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishi pedagogning shaxsiy mas'uliyatiga asoslanadi va jarayonning natijadorligini ifodalaydi.

Pedagogning jarayonda ishtirok etish shakli. Pedagogning individual ta'limgan trayektoriyasini amalga oshirishda rejallashtirilgan tadbirlar va taomillar quyidagi shakllarda bajarilishi mumkin:

- malaka oshirish kurslari;
- qisqa muddatli kurslar;
- onlayn kurslar;
- mahorat maktabi;
- vebinlar;
- uslubiy birlashmadagi faoliyat;
- mutaxassislikka oid turli adabiyotlar muhokamasi;
- konferensiya va seminarlarda ishtirok etish;

- attestasiya jarayoniga tayyorgalik;
- ustama olish uchun amalga oshiriladigan taomillar;
- ilg‘or tajribalarini ommalashtirish va mahorat darslari o‘tkazish;
- ilmiy jurnallar va OAVlarida nashr ishlari;
- ustoz-shogird an’analari bo‘yicha faoliyati;
- tajriba maydonchalaridagi tadqiqot ishlariga qatnashish va h.k.

Natijalarni taqdim qilish shakli. Faoliyat natijasida erishilishi kutiladigan natijalar turli shakllarda, jumladan, portfolio, metodik mahsulotlar, ilg‘or tajribasini ommalashtirish, mahorat darsi, ijodiy hisobot, nashr ishlari, o‘quv loyihalari, innovatsion faoliyat natijalari haqida hisobot, konkurslar, ma’lum bir muammo yuzasidan ijobiy tajriba taqdimoti va boshqa shakllarda taqdim etilishi avvaldan belgilanadi.

Natijalar tahlili va ularni taqdim qilish joyi. Faoliyat yakunida erishilgan natijalar tahlil qilinadi va qo‘yilgan maqsadga solishtiriladi. Refleksiya individual suhbat, o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish, o‘zaro baholash va nazorat, o‘zgarishlarni taqqoslash, refleksiv esse shakllarida tashkil etiladi. Shuningdek, natijalarni taqdim qilish joyi ham belgilanadi va ular malaka oshirish kurslari, metodik birlashmalar, metodik va pedagogik kengash, seminar va konferensiyalar, mahorat darslari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Bajarilishi haqida belgi. Individual ta’lim trayektoriyasida ko‘rsatilgan har bir tadbir va taomillar bajarilishi haqida tegishli belgi qo‘yib borilishi juda muhimdir, chunki ularning to‘liq bajarilishi orqaligina jarayon sifatining ta’milanishiga va qo‘yilgan maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, agar pedagog kasbiy rivojlanish individual ta’lim trayektoriyasini tuzib, uni amalga oshirishdan oldingi darajasini belgilab qo‘ysa va trayektoriyani amalga oshirib bo‘lgandan keying darjasini bilan taqqoslasa, kasbiy rivojlanganligini, avvollo, o‘zi his qiladi. Faoliyatida samaradorlik oshganligini, aniq natijalarga ishlay boshlayotganligi tushunib yetadi. Shuningdek, “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida kasbiy rivojlanishning ikkinchi, uchinchi va h. individual ta’lim trayektoriyasini tuzib doimiy ravishta amalga oshirib borish pedagog uchun o‘z ustida ishslashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, Toshkent, 2020-yil 6-noyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori, Toshkent, 2020-yil 6-noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, Toshkent sh., 2021-yil 25-yanvar.

4. Боймуродова Г.Т. Замонавий таълимда узлуксиз малака ошириш тизими // Замонавий таълим. – 2014. – № 2.

5. Ибрагимов А. Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини кўп векторли ёндашув асосида такомиллаштириш: PhD диссертация, Самарқанд, 2018.